



JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI
“TALABALAR KENGASHI” TO‘G‘RISIDAGI

NIZOM

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
“Talabalar Kengashi”**

NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Talabalar Kengashi” (keyingi o‘rinlarda – Talabalar Kengashi) mustaqil o‘zini-o‘zi boshqaruvchi talaba organi hisoblanadi hamda o‘z faoliyatida Talabalar umumiy yig‘ilishiga hisobdor bo‘ladi.

2. Talabalar Kengashi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti ustavi hamda mazkur Nizomga amal qiladi.

3. Talabalar Kengashining vakolat muddati — 1 (bir) yil. Yangi chaqiriq shakllantirilguncha amaldagi Kengash o‘z faoliyatini davom ettiradi.

4. Talabalar Kengashi o‘z logotipi, a‘zolarining ko‘krak nishoni va belgilangan namunadagi guvohnomalariga ega bo‘ladi.

5. Talabalar Kengashining rasmiy nomi:

to‘liq — Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Talabalar Kengashi;

qisqartirilgan — Talabalar Kengashi;

ingliz tilida — Students Council of the University of World Economy and Diplomacy.

rus tilidagi: to‘liq nomi – Студенческий совет Университета мировой экономики и дипломатии qisqartirilgan nomi – Студенческий совет

II. Kengashning maqsad va vazifalari

6. Talabalar Kengashining maqsadi:

- Talabalarni qo‘llab-quvvatlash;
- Huquqiy ong va savodxonlikni oshirish;
- Jamiyatda yoshlarni siyosiy faol qatlamga aylantirish;
- Talabalar huquq va manfaatlarini himoya qilish;
- Universitetda madaniy-ma’rifiy va ma’naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash;
- Talabalar ijtimoiy faolligini, liderlik, tashabbuskorlik va uyushqoqlik ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- Universitet ichki hayotida faol ishtirokni ta’minlash.

7. Kengashining asosiy vazifalari:

7.1. Talabalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

7.2.Talabalarning siyosiy bilimlarini oshirish, vakillik organlari bilan hamkorlik qilish;

7.3.Kengash faoliyati va qonun ijodkorligi jarayonlaridan xabardorlikni oshirish;

7.4.Qonun ijodkorligi faoliyatini oshirishga yoshlarni jalb qilish;

7.5.Talabalar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish;

7.6.Huquqiy madaniyatini yuksaltirish va talabalarning intellektual, ma'naviy-axloqiy, estetik va badiiy dunyoqarashini kengaytirish.

7.7.Talabalarning muammolarini o'rganish va ularning yechimi yuzasidan takliflar tayyorlash.

III. Kengashning huquqlari

8.Talabalar Kengashi quyidagi huquqlarga ega:

8.1. Universitet majlislarida ishtirok etish;

8.2.Talabalar nomidan fikr bildirish va tashabbus bilan chiqish;

8.3. Xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan belgilangan tartibda hamkorlik qilish;

8.4.Qonunda taqiqlanmagan manbalar hisobidan o'z faoliyatini moliyalashtirish.

IV. Vasiylik Kengashi

9.Vasiylik Kengashi – Universitetning Talabalar kengashi faoliyatiga strategik yo'nalish beruvchi, uning loyiha va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi va Universitet ma'muriyati bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantiruvchi keng vakolatli maslahat organidir. Vasiylik Kengashning asosiy vazifasi Talabalar kengashining qaror va faoliyatini Universitetning strategik maqsadlari, xalqaro talabalar o'zini-o'zi boshqarish standartlari hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va Universitet Ustaviga muvofiqlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqish va tavsiyalar berishdir.

10.Vasiylik Kengash 5 nafar a'zodan iborat bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

–Talabalar Kengashi raisi (rais)

–Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor

–Yoshlar ofisi rahbari;

– Talabalar Kengashi faxriysi" vakil;

– Universitet bitiruvchilari (alumni) assotsiatsiyasi vakili.

11.Kengash har yili o'z a'zolari orasidan kotib saylaydi. Kotib yig'ilishlar jurnalini yuritish, qarorlarni rasmiylashtirish va axborot almashinuvini tashkil etish mas'uliyatini oladi.

12.Kengash quyidagi masalalar bo'yicha ko'rib chiqish va tavsiyalar (maslahat) berish huquqiga ega:

–Talabalar kengashining yillik ish rejasi va byudjeti loyihasi;

–Talabalar o‘rtasida keng munozaralarga sabab bo‘lgan yoki universitetning obro‘-siga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan muhim loyihalar va tashabbuslar;

–Talabalar kengashi faoliyatining samaradorligi va tashkiliy tuzilmasi bo‘yicha takliflar;

–Talabalar kengashi a‘zolari va rahbarlarining vakolatlari va javobgarligini belgilovchi ichki hujjatlar loyihalari;

–Talabalar kengashi va universitet ma‘muriyati o‘rtasidagi muvozanatli hamkorlikni mustahkamlash yo‘llari;

–Xalqaro o‘zini-o‘zi boshqarish tashkilotlarining tajribasini yaxshi amaliyotlarini o‘rganish va ularni universitet sharoitida joriy etish bo‘yicha takliflar.

V. Kengash raisini saylash tartibi

13.Talabalar Kengashiga saylovni Saylov Komissiyasi o‘tkazadi.

14.Saylov Komissiyasi a‘zolari Talabalar Kengashining ochiq ovoz berish asosidagi majlisida talabalar safidan saylanadi. Universitet rahbariyati va Vasiylik Kengashi a‘zolari kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi.

15.Saylovni tashkil etish va o‘tkazish uchun, Talabalar Saylov Komissiyasi saylovga kamida 15 kun qolganda ishchi guruh tuzadi.

16.Saylov avvalgi chaqiriq raisining vakolat muddati tugashidan kamida ikki oy oldin e‘lon qilinadi.

17.Nomzodlar universitetning 2 va 3-bosqich talabalari bo‘lishi va o‘z nomzodini erkin ravishda Talabalar Saylov Komissiyasiga yozma ariza topshirishi kerak.

18.Birinchi bosqichda nomzodlar Talabalar Saylov Komissiyasi tomonidan suhbatga taklif etiladi. Saralash mezonlari: saylovoldi dastur, notiqlik, qonunchilik va davlat boshqaruvi bilimlari, jamiyatdagi yangiliklar, huquqiy ong darajasi. Vasiylik Kengashi a‘zolari saralash jarayonida ishtirok etishlari mumkin.

19.Suhbat yakuni bo‘yicha 5 nafargacha nomzodlar saralanadi, bayonnoma rasmiylashtiriladi va Talabalar Kengashi raisi tomonidan imzolanadi.

20.Saylov Komissiya hamda Vasiylik Kengashi nomzodlarning siyosiy-faoliyat, ilmiy ishlari, mukofotlari, OAVdagi faolligi va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni hisobga oladi.

21.Talabalar Kengashi raisini saylash umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Saylov natijasiga ko‘ra g‘olib – saylovchilarning ovozlari mutlaq ko‘pchiligini (50 foizdan bir ovoz ko‘p) qo‘lga kiritgan nomzod hisoblanadi.

Saylovchilar tarkibiga bakalavriat va magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar, professor-o‘qituvchilar hamda universitet ma‘muriyati (kafedralar, dekanatlar va rektorat) vakillari kiradi. Barcha saylovchilarning ovozlari teng kuchga ega.

Saylovchilar nomzodlarga byulleten orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz beradilar, ovoz berish jarayoni va saylovchilarning tanlovi sir saqlanadi.

VI.Kengash raisining maqomi va muddatidan avval saylov.

22.Kengashi raisi bir paytning o'zida mehnat faoliyatini olib borishi, hududiy va mahalliy deputatlari bo'lishi mumkin emas.

23.Kengashi raisiga guvohnoma va ko'krak nishoni beriladi.

24.Kengashi raisining huquqlari:

–koordinatolarni tayinlash va lavozimdan ozod qilish;

–universitet majlislarida masalalarni taklif etish;

–strukturaga o'zgartirish kiritish;

–hal qiluvchi ovoz huquqidan foydalanish.

25.Kengash raisining majburiyatlari: Amaldagi qonun hujjatlariga, ushbu Nizom talablariga to'liq rioya qilish, majlislar va tadbirlarda ishtirok etish, talabalar ta'sirini oshirish, muammolarni hal qilishga yordam berish.

26.Kengash raisining vakolatlari muddatidan oldin: ariza berishi, jiddiy xato qilishi, talabalar safidan chetlashtirilishi yoki vafot etishi holatlarida tugatiladi.

27.Muddatidan oldin saylov: Talabalar Kengashi yig'ilishi 5 ish kuni ichida o'tkaziladi, saylov 30 kun ichida tashkil qilinadi

VII. Kengash faoliyatini tashkil etish

28.Faoliyat tashkiliy shakli – yiliga kamida 4 marta yalpi majlislar. Qarorlar ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

29.Rais: majlislarni chaqiradi, qo'mita va komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtiradi, takliflarni rahbariyatga taqdim etadi, xalqaro aloqalarni rivojlantiradi, qarorlar ijrosini nazorat qiladi, talabalar buyruqlariga veto huquqiga ega.

30.Kengash departamentlari:

30.1.Kengash Raisi – Universitet talabalari manfaatlarini himoya qiladi, kengashni boshqaradi va strategiyani belgilaydi.

30.2.Raisning birinchi o'rinbosari – Rais vazifalarini (rais safari, ta'tili, kasallik va boshqa asosli sabablar) vaqtincha bajaradi. Kengashning ichki faoliyatini muvofiqlashtirish va departamentlar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlaydi.

30.3.Rais o'rinbosari – Kengash faoliyatiga oid nizom, qarorlar, buyruqlar va boshqa rasmiy hujjatlarni tayyorlaydi va yuritadi.

30.4 Matbuot kotibi – Raisning axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi, Kengash faoliyatini doimiy yoritadi va muntazam yangilab boradi.

30.5 Ilmiy-tadqiqot masalalari koordinatori – talabalar ilmiy maqolalarini yetakchi jurnallarida chop etishga ko'maklashadi va ilmiy nashrlar yo'nalishida mahorat darslarini tashkil etadi.

30.6 Tashqi aloqalar bo'yicha koordinatori – Mahalliy va xalqaro hamkorlikni rivojlantiradi.

30.7.Talaba xotin-qizlar masalalari bo'yicha koordinatori – Talaba xotin qizlarning huquqlari, manfaatlari hamda ijtimoiy faoliligini qo'llab-quvvatlashga mas'ul.

30.8.Volontyorlik bo'yicha koordinatorlar – Ko'ngillilar ro'yxatini shakllantirib, ularni O'zbekistondagi muhim siyosiy jarayonlarda volontyor sifatida faoliyat olib borishini ta'minlaydi.

30.9.Chet tillar bo'yicha koordinator – Talabalar o'rtasida xorijiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish.

30.10.Sport koordinatori – universitetdagi barcha sport tadbirlari hamda sport klublari uchun mas'ul.

30.11.Tashkiliy masalalar bo'yicha koordinator –Tadbirlarni rejalashtiradi va tashkil qiladi.

30.12.Talabalar turar joyi koordinatori – turar joydagi talabalarni qo'llab-quvvatlaydi.

30.13.Taklif va murojaatlari markazi koordinatori – Talabalar fikr mulohazalari, taklif va muammolarini tizimli yig'adi va Raisga taklif kiritadi.

30.14.Madaniyatlararo hamkorlik va turizm masalalari koordinatori – Talabalar xalqaro va milliy madaniy tadbirlarda faol ishtirokini ta'minlash, universitetda madaniy xilma-xillik muhitini yaratish hamda ichki va tashqi turizm loyihalarini tashkil etish bilan shug'ullanadi.

VIII. Yakunlovchi qoidalar

31.Universiteti rektori tomonidan Kengash a'zolariga tavsifnoma beriishi mumkin.

32.Talabalar Kengashi qayta tashkil etish va tugatish Vasiylik kengashining yozma roziligi asosida Talabalar Kengashi umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.